

13.00.01 – PEDAGOGIKA NAZARIYASI. PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI (PEDAGOGIKA FANLARI) IXTISOSLIGI BO'YICHA SAVOLLAR

I. TA'LIM SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATI VA NORMATIV-HUQUQIY ASOSLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni mazmuni, mohiyati va unda belgilangan vazifalar.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190-son Farmoni mazmuni, mohiyati va unda belgilangan vazifalar.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4939-son Qarori mazmuni, mohiyati va unda belgilangan vazifalar.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5140-son Qarori mazmuni, mohiyati va unda belgilangan vazifalar.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-avgustdagi "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviyligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5241-son Qarori mazmuni, mohiyati va unda belgilangan vazifalar.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son Qarori mazmuni, mohiyati va unda belgilangan vazifalar.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrdagi "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 836-son Qarori mazmuni, mohiyati va unda belgilangan vazifalar.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-dekabrdagi "Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 900-son Qarori mazmuni, mohiyati va unda belgilangan vazifalar.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-sentabrdagi “Texnikumlarda xorijiy ta’lim tashkilotlari ishtirokida qo‘shma ta’lim dasturlarini joriy qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 614-son Qarori mazmuni, mohiyati va unda belgilangan vazifalar.

10. “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning ustuvor yo‘nalishlari hamda ularda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishga oid masalalar.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning kasbiy ta’lim sohasini isloh qilishga doir qarorlari mazmuni va ularning ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish hamda boshqarishdagi ahamiyati.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan yosh avlod tarbiyasiga kompleks yondashuv g‘oyasi.

II. PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA PEDAGOGIK TA’LIMOTLAR TARIXI

13. Tarbiyaning paydo bo‘lishi va tarixiy rivojlanishi.

14. Zamonaviy pedagogikada ta’lim paradigmalari.

15. Ta’lim mazmuni: asosiy tushunchalari va uni shakllantirishga qo‘yiladigan talablar.

16. Ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagoglar yo‘l qo‘yadigan xatolar va ularning oldini olish yo‘llari.

17. Ta’limni tashkil etishning an’anaviy shakllari; dars turlari va darsning tuzilishi.

18. O‘quv jarayonini “texnologiyalashtirish” konsepsiyasi, uning ijobiy va salbiy tomonlari.

19. Shaxsning psixologik va fiziologik rivojlanish qonuniyatlari.

20. Abu Rayhon Beruniyning ma’rifiy qarashlari.

21. Darsda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etish; o‘quv faoliyatining yalpi (ommaviy), guruhli va individual shakllari.

22. Ta’lim tashkilotlarini bozor munosabatlari sharoitida rivojlantirish strategiyasi.

23. O‘quv-tarbiya jarayonini nazorat qilish: turlari, funksiyalari va baholash mezonlari.

24. Pedagogika fanida yangi tarmoqlarning yuzaga kelishi va rivojlanish istiqbollari.

25. Malaka talablarining tuzilmasi, ishlab chiqilishi va amaliyotda qo‘llanilish tartibi.

26. Metodologiya tushunchasi; metodologik bilimlarning darajalari; metodologik madaniyat.

27. Folklor namunalarida tarbiyaning og‘zaki usullari ifodasi; qadimgi afsona va qo‘shiqlarning tarbiyaviy qimmatlari.

28. Oliy ta‘limdan keyingi ta‘limning maqsadi, vazifalari va tashkiliy shakllari.

29. Pedagogik muloqotning tavsifi va turlari; verbal hamda noverbal muloqot.

30. Qadimgi davlatlar: So‘g‘diyona, Xorazm va Baqtriyada ta‘lim-tarbiyaning rivojlanishi.

31. Zamonaviy pedagogik fikr rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari.

32. Kreativlik tushunchasi, uning ta‘riflari hamda psixologik-pedagogik asoslari.

33. Ko‘nikmalarning kompetensiyaga aylanishi.

34. Pedagogik texnika va uni shakllantirish uslublari.

35. Zamonaviy jahon ta‘lim tizimidagi global tendensiyalar.

36. Insonning yosh davrlari tavsifi va yosh davrlari psixofiziologiyasi.

37. Didaktikaning asosiy tushunchalari; didaktik tizimlar.

38. Xorijiy mamlakatlar tarbiya konsepsiyalarining asosiy g‘oyalari.

39. Shaxsning rivojlanishi va ijtimoiylashuvi.

40. O‘zbekistonda kasbiy ta‘lim tizimi islohotining bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari (2017—2026-yillar).

41. Pedagogika fanida ilmiy-metodologik yondashuvlar.

42. Kasbiy ta‘limga xalqaro tajribalarning joriy etilishi.

43. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimidagi islohotlar mazmuni.

44. G‘arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikr taraqqiyoti.

45. Faoliyat tushunchasi va uni tavsiflovchi asosiy belgilar.

46. O‘quv jarayonining funksiyalari.

47. Jamoa haqida tushuncha; jamoaning pedagogik vazifalari.

48. O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim tizimi: tarkibi, ta‘lim turlari va bosqichlari.

49. Xorijiy davlatlarning ta‘lim modellari.

50. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida; pedagogika fanining obyekti va predmeti.

51. Testlarning turlari va ularni qo‘llash imkoniyatlari.

52. Pedagogikada gender xususiyatlarining o‘ziga xosligi.

53. Pedagogik tadqiqotlarda matematik modellashtirish.

54. Oila tarbiyasi va oila pedagogikasi.

55. Tarbiya jarayonining mazmuni va tarbiyalanganlik darajasi.

56. Ta‘limni tashkil etishning noan‘anaviy shakllari va turli tipdagi darslarning tuzilmasi.

57. Kasbiy ta‘lim tizimidagi islohotlarning ta‘lim-tarbiya jarayoni mazmuniga ta‘siri.

58. Ta‘lim vositalarining tavsifi.

59. Pedagogikaning taraqqiyot bosqichlari.

60. Impakt-faktor tushunchasi, uni hisoblash metodikasi, afzalliklari va kamchiliklari.

61. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tavsifi.

62. Aksiologiyaning fan tarmog'i sifatidagi tavsifi.

63. Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayonning obyekti va subyekti sifatida.

64. Ta'lim metodlarining tavsifi va tasnifi.

65. Neyropedagogikaning fan tarmog'i sifatidagi tavsifi.

66. Ta'lim mazmunini tanlash tamoyillari.

67. Ta'lim sifati menejmenti va uning asosiy turlari.

68. O'quv maqsadlari taksonomiyasi: mohiyati va qo'llanilishi.

69. Ilmiy bilimlar hamda ularni amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

70. Nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatining tashkil etilishi.

71. Inklyuziv ta'limni amalga oshirishning psixologik-pedagogik asoslari.

72. Abu Nasr Forobiyning pedagogik qarashlari.

73. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari.

74. Ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonini rejalashtirish.

75. Pedagogikada fanlararo aloqadorlik g'oyalari va tamoyillari.

76. Prognostik tadqiqotlarning metodologik asoslari.

77. Pedagogik antropologiya va uning zamonaviy tendensiyalari.

78. Ta'lim muhitini yaratish va rivojlantirish texnologiyalari.

79. Zamonaviy pedagogikaning innovatsion rivojlanish tendensiyalari.

80. Pedagogik tadqiqotlarning ijtimoiy-falsafiy jihatlar.

81. Masofaviy va media ta'limni rivojlantirish omillari.

82. Ta'lim sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari.

83. Ta'lim tizimini insonparvarlashtirish (gumanizatsiya) va gumanitarlashtirish tamoyillari.

84. Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirishning zamonaviy pedagogik jihatlar.

85. Jadidlarning pedagogik qarashlari.

86. Pedagogik va psixologik bilimlarning didaktik aloqadorligi.

87. Pedagogik tadqiqotlarning mantig'i.

88. Yevropa va Osiyo Uyg'onish davrlarida gumanistik g'oyalarning shakllanishi.

89. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim: mohiyati, tamoyillari va texnologiyalari.

90. Ta'limda uzluksizlik va uzviylik tamoyillari.

91. Ta'limni tabaqalashtirish va individuallashtirish: asosiy tamoyillari va usullari.

92. Amaliy pedagogika: mohiyati, holati va shakllari.

93. Oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi.
94. Tarbiyalanuvchilarning reproduktiv va ijodiy bilish faoliyati.
95. Ta'limning texnikaviy vositalari; sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari.
96. Fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va fuqarolik hissini rivojlantirishning pedagogik tamoyillari.
97. Oila — mahalla — maktab hamkorligini tashkil etishning didaktik va metodik asoslari.
98. Yoshlarda innovatsion fikrlashni rivojlantirish jarayonini boshqarishning pedagogik jihatlari.
99. Qadimgi yunon faylasuflari (Suqrot, Aflotun, Arastu va Demokrit) ta'limotida ta'lim-tarbiya masalalarining talqini.
100. Pedagogik loyihalashtirish va modellashtirish.
101. Ta'lim oluvchilarda mafkuraviy immunitet va yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik jihatlari.
102. Ta'lim tizimi zaxiralarini shakllantirish jarayoni va uning pedagogik imkoniyatlari.
103. Tarbiyaning mohiyati va mazmuni; tarbiyani amalga oshirish tamoyillari.
104. Pedagogika fanining rivojlanishiga oid tadqiqot yondashuvlari, ularning mosligi va qo'llanilish chegaralari; pedagogik tadqiqot usullari.
105. Pedagogika fani predmeti sohasining rivojlanishi; pedagogik tadqiqotda fanlararo munosabatlarning o'ziga xosligi.
106. Pedagogika fani va ta'lim amaliyoti o'rtasidagi munosabatlarning dialektik tabiati.
107. Pedagogika fani va ta'lim amaliyotining rivojlanish tarixi; ta'lim amaliyoti tarixiy taraqqiyotining tahlili.
108. Ilmiy-pedagogik g'oya, tushuncha va nazariyalarni shakllantirish hamda rivojlantirish; o'tmishning atoqli pedagoglari pedagogik merosini monografik o'rganish.
109. Etnopedagogika tarixi; pedagogik leksika va terminologiyaning rivojlanishi.
110. Ta'lim orqali talabalarning yangi ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvi; ta'lim sifati va uni baholash texnologiyalari.
111. Uzluksiz ta'lim; kattalar ta'limi; ta'limdagi innovatsion jarayonlar; ta'lim tizimlarini boshqarish; rasmiy, norasmiy va informal ta'lim hamda asosiy va qo'shimcha ta'lim o'rtasidagi munosabatlar.